



UDK:37.016:37.013.2

*Nargiza YUSUPOVA,*

*Fan va texnologiyalar universiteti katta o‘qituvchisi, PhD*

*E-mail: n\_yusupova@usat.uz*

*USAT dotsenti v.b, PhD R.Rasulov taqrizi asosida*

## PRINCIPLES OF IMPROVING THE EDUCATIONAL AND METHODOLOGICAL SYSTEM FOR DEVELOPING CREATIVE ACTIVITY

Annotation

This article analyzes the principles of improving the educational and methodological system aimed at developing creative activity from both theoretical and practical perspectives. It substantiates the mechanisms for forming creative competencies based on systematization, activity-oriented learning, integration, reflexivity, and the alignment with an innovative pedagogical environment within the educational process. The results contribute to enhancing the professional training of future teachers and improving the quality of education.

**Key words:** Creative activity, educational and methodological system, pedagogical principles, creative competence, systemic approach, innovative education, reflexive activity, professional training.

## ПРИНЦИПЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЕБНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Аннотация

В статье с научно-теоретической и практической точек зрения анализируются принципы совершенствования учебно-методической системы, направленной на развитие творческой деятельности. Обосновываются механизмы формирования творческих компетенций на основе системности, деятельностного подхода, интегративности, рефлексивности и согласованности с инновационной педагогической средой образовательного процесса. Полученные результаты способствуют повышению профессиональной подготовки будущих педагогов и качества образования.

**Ключевые слова:** Творческая деятельность, учебно-методическая система, педагогические принципы, творческая компетентность, системный подход, инновационное образование, рефлексивная деятельность, профессиональная подготовка.

## IJODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA O‘QUV-METODIK TIZIMNI TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI

Аннотация

Ushbu maqolada ijodiy faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv-metodik tizimni takomillashtirish tamoyillari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, ta‘lim jarayonida tizimlilik, faoliyatga yo‘naltirilganlik, integrativlik, refleksivlik hamda innovatsion pedagogik muhit bilan uyg‘unlik asosida ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari asoslab berilgan. Natijalar bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va ta‘lim sifatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Ijodiy faoliyat, o‘quv-metodik tizim, pedagogik tamoyillar, kreativ kompetensiya, tizimli yondashuv, innovatsion ta‘lim, refleksiv faoliyat, kasbiy tayyorgarlik.

**Kirish.** Zamonaviy globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida ta‘lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – ijodiy fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan va yangilik yaratishga qodir shaxsni shakllantirishdan iboratdir. Ayniqsa, pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida ijodiy faoliyatni rivojlantirish masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Chunki kelajak avlodning tafakkuri, dunyoqarashi va innovatsion salohiyati bevosita o‘qituvchining ijodkorlik darajasi bilan bog‘liqdir. Shunday ekan, bo‘lajak o‘qituvchilarda, xususan tarix o‘qituvchilarida ijodiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan o‘quv-metodik tizimni ilmiy asosda takomillashtirish dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

Hozirgi ta‘lim amaliyotida ijodiylikni rivojlantirishga qaratilgan ayrim metodlar va texnologiyalar qo‘llanilayotgan bo‘lsa-da, ular ko‘pincha fragmentar xarakterga ega bo‘lib, yaxlit tizim ko‘rinishida shakllanmagan. Ijodiy topshiriqlar berish, interfaol metodlardan foydalanish yoki muammoli ta‘lim elementlarini joriy etish alohida pedagogik vosita sifatida samara berishi mumkin, biroq ular o‘zaro bog‘langan o‘quv-metodik tizimga integratsiyalashmagan taqdirda

kutilgan natijani to‘liq ta‘minlay olmaydi. Demak, ijodiy faoliyatni rivojlantirish jarayonini tasodifiy yoki epizodik emas, balki ilmiy asoslangan tamoyillar tizimiga tayangan holda tashkil etish zarur.

O‘quv-metodik tizimni takomillashtirish, avvalo, uning maqsad, mazmun, metod, shakl va baholash komponentlarini qayta ko‘rib chiqishni talab etadi. Ijodiy faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan tizimda talaba faqat bilimni o‘zlashtiruvchi subyekt emas, balki bilimni qayta ishlab chiqadigan, muammoga yangi yondashuv taklif eta oladigan faol ishtirokchi sifatida qaralishi lozim. Bu esa o‘qitish jarayonining subyekt-subyekt munosabatlariga asoslanishini, refleksiya va mustaqil izlanish muhitining yaratilishini taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, o‘quv-metodik tizimni takomillashtirish tamoyillari nafaqat metodik vositalarni, balki pedagogik tafakkur modelini ham yangilashga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada ijodiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan o‘quv-metodik tizimni takomillashtirishning nazariy asoslari tahlil qilinadi hamda uning asosiy tamoyillari ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqotning maqsadi – pedagogik

jarayonda ijodiy faoliyatni samarali rivojlantirishni ta'minlaydigan o'quv-metodik tizimni takomillashtirish tamoyillarini aniqlash va ularni konseptual jihatdan tizimlashtirishdan iborat. Ushbu muammoning yechimi ta'lim sifatini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini mustahkamlash va ularning innovatsion salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Metodlar.** Mazkur tadqiqot ijodiy faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-metodik tizimni takomillashtirish tamoyillarini ilmiy asoslashga qaratilgan bo'lib, unda zamonaviy pedagogik fan yutuqlari, tizimli tahlil va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv metodologik negiz sifatida qabul qilindi. Tadqiqot jarayonida o'quv jarayoni yaxlit pedagogik tizim sifatida talqin etilib, uning maqsad, mazmun, metodlar va baholash komponentlarining o'zaro uzviy bog'liqligi asosiy tamoyil sifatida qaraldi. Bu yondashuv pedagogik jarayonni samarali tashkil etishda tizimlilik va optimallashtirish zarurligini ta'kidlovchi ilmiy qarashlarga tayandi [1].

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini shaxs faoliyati konsepsiyasi hamda kompetensiyaviy yondashuv tashkil etdi. Ta'lim jarayonida bilimlarning o'zlashtirilishi bilan bir qatorda, talabalarning muammoli vaziyatlarni hal etish, mustaqil fikrlash va ijodiy qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Mazkur yondashuv ta'lim natijalarini shaxsning amaliy faoliyatga tayyorgarligi bilan bog'lashga xizmat qiluvchi ilmiy konsepsiyalar bilan uyg'un holda amalga oshirildi [2].

Ijodiy faoliyatni rivojlantirish jarayonini metodik jihatdan ta'minlashda pedagogik modellashtirish muhim ilmiy vosita sifatida qo'llanildi. Unda o'quv-metodik tizimning tarkibiy qismlari – maqsadlar bloki, mazmuniy komponent, metodlar majmui va baholash mexanizmlari yagona konseptual tuzilma sifatida ishlab chiqildi. Bu jarayonda ijodiy faollikni rag'batlantiruvchi interfaol metodlar, muammoli ta'lim elementlari va refleksiv faoliyat shakllari integratsiyalashgan holda tatbiq etildi. Mazkur yondashuv o'quv jarayonida talabani faolligini oshirish va ijodiy salohiyatini tizimli rivojlantirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi [3].

Tadqiqot metodlari kompleks xarakterga ega bo'lib, nazariy tahlil orqali pedagogik adabiyotlar va ilg'or tajribalar o'rganildi, taqqoslash usuli yordamida mavjud metodik tizimlar samaradorligi baholandi hamda umumlashtirish metodi asosida takomillashtirilgan tamoyillar konsepsiyasi ishlab chiqildi. Empirik bosqichda kuzatish, suhbat va diagnostik baholash usullari orqali talabalar ijodiy faoliyatining rivojlanish darajasi tahlil qilindi. Olingan natijalar metodologik asoslanganlik tamoyiliga muvofiq ravishda mantiqiy izchillikda qayta ishlanib, ilmiy xulosalar chiqarildi.

Shuningdek, refleksiv yondashuv tadqiqotning muhim metodologik tarkibiy qismi bo'lib, u talabalarni o'z faoliyatini tahlil qilish, natijalarni baholash va ijodiy yechimlarni ongli ravishda ishlab chiqishga yo'naltirdi. Bu esa ijodiy faoliyatni rivojlantirish jarayonini tashqi pedagogik ta'sir bilan cheklab qo'ymasdan, shaxsning ichki rivojlanish mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish imkonini berdi.

**Natijalar va muhokama.** Tadqiqot natijalari ijodiy faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-metodik tizimni takomillashtirish zarurati uning tarkibiy komponentlarini qayta ko'rib chiqish orqali asoslanishini ko'rsatdi. Nazariy tahlillar va empirik kuzatishlar asosida aniqlanishicha, amaldagi metodik amaliyotda ijodiy topshiriqlar va interfaol metodlar qo'llanilayotgan bo'lsa-da, ular ko'pincha tizimli asosga ega emas va yagona konseptual modelga birlashtirilmagan. Shu bois tadqiqot davomida o'quv-metodik tizimni

takomillashtirishning olita asosiy tamoyili ishlab chiqildi va ilmiy jihatdan asoslandi.

Birinchi tamoyil — tizimlilik tamoyili bo'lib, u o'quv jarayonining barcha komponentlarini (maqsad, mazmun, metod, shakl va baholash) o'zaro uzviy bog'liqlikda tashkil etishni nazarda tutadi. Bu tamoyil pedagogik jarayonni optimallashtirish va natijadorligini oshirish zarurligini asoslovchi ilmiy qarashlarga tayanadi [4]. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tizimli yondashuv qo'llanilganda ijodiy faoliyat tasodifiy emas, balki rejalashtirilgan pedagogik mexanizm sifatida shakllanadi.

Ikkinchi tamoyil — faoliyatga yo'naltirilganlik bo'lib, unda talaba o'quv jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki muammoli vaziyatlarni hal etuvchi, yangi g'oyalari ilgari suruvchi subyekt sifatida qaraladi. Bu yondashuv shaxsning kompetensiyaviy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi [5]. Empirik kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, muammoli vazifalar va ijodiy loyihalar bilan boyitilgan darslar talabalarning mustaqil fikrlash darajasini sezilarli oshiradi.

Uchinchi tamoyil — integrativlik tamoyili bo'lib, u nazariya va amaliyot birligini ta'minlashni ko'zda tutadi. Ijodiy faoliyatni rivojlantirish faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish orqali emas, balki ularni real pedagogik vaziyatlarda qo'llash orqali amalga oshiriladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, integratsiyalashgan metodik model qo'llanilganda talabalarning ijodiy qaror qabul qilish ko'nikmalari mustahkamlanadi. Bu holat ijodiy faollikni rivojlantirishning metodik asoslarini ilmiy jihatdan asoslovchi tadqiqotlar bilan hamohangdir [6].

To'rtinchi tamoyil — subyektivlik va refleksivlik tamoyili. Ushbu tamoyil talabani o'z faoliyatini anglash, baholash va tahlil qilish jarayonini rivojlantirishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari ko'rsatdiki, refleksiv topshiriqlar va o'z-o'zini baholash mexanizmlarini joriy etish ijodiy fikrlashni chuqurlashtiradi hamda ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Bu yondashuv ijodkorlikni shaxsning ichki rivojlanish jarayoni sifatida talqin etuvchi ilmiy qarashlar bilan mos keladi [7].

Beshinchi tamoyil — innovatsion pedagogik muhit bilan uyg'unlik tamoyili bo'lib, unda raqamli vositalar va interfaol texnologiyalar ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi omil sifatida qaraladi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, raqamli taqdimotlar, virtual muhitlar va loyiha asosida o'qitish usullari talabalarning kreativ yondashuvini sezilarli darajada faollashtiradi. Bu jarayon zamonaviy ta'lim transformatsiyasining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi [8].

Oltinchi tamoyil — motivatsion qo'llab-quvvatlash tamoyili bo'lib, unda ijodiy faoliyatni rag'batlantiruvchi psixologik va pedagogik sharoitlar yaratish zarurligi ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, erkin fikr almashinuvi, ijobiy baholash va konstruktiv muhokama muhiti talabalarning tashabbuskorligini oshiradi hamda yangicha fikrlashga undaydi. Mazkur xulosalar ijodiy tafakkurni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini ochib beruvchi ilmiy qarashlar bilan uyg'unlikda namoyon bo'ladi [9].

Muhokama jarayonida ishlab chiqilgan tamoyillarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati tahlil qilindi. Avvalgi tadqiqotlarda ijodiylikni rivojlantirish ko'proq metod yoki texnologiya darajasida yoritilgan bo'lsa, mazkur tadqiqotda u o'quv-metodik tizimning konseptual tamoyillari darajasida asoslandi. Bu esa metodik faoliyatni fragmentarlikdan tizimlilikka o'tkazish imkonini beradi. Shuningdek, natijalar ko'rsatdiki, tamoyillarning kompleks qo'llanilishi o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi hamda talabalarda barqaror ijodiy kompetensiyani shakllantiradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari o'quv-metodik tizimni takomillashtirish tamoyillari ilmiy asosda ishlab chiqilganda, ijodiy faoliyatni rivojlantirish jarayoni izchil, maqsadli va samarali tashkil etilishini tasdiqladi. Ushbu

tamoyillar pedagogik amaliyotda qo'llanilganda, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tariladi.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot ijodiy faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv-metodik tizimni takomillashtirish masalasini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishga qaratildi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, zamonaviy ta'lim sharoitida ijodkor shaxsni shakllantirish tasodifiy pedagogik usullar bilan emas, balki ilmiy asoslangan, tizimli va izchil o'quv-metodik yondashuv orqali amalga oshirilishi zarur. Ijodiy faoliyatni rivojlantirishni ta'lim jarayonining alohida elementi sifatida emas, balki butun pedagogik tizimning markaziy maqsadi sifatida belgilash uning samaradorligini sezilarli oshiradi.

Shuningdek, refleksivlik va subyektivlik tamoyillari orqali talabalarning o'z faoliyatini anglash, tahlil qilish va takomillashtirish jarayoni rivojlandi. Bu esa ijodiy faoliyatni faqat tashqi pedagogik ta'sir natijasi emas, balki shaxsning ichki intellektual va motivatsion o'sishi bilan bog'liq jarayon sifatida shakllantirdi. Innovatsion pedagogik muhit bilan uyg'unlik tamoyili esa raqamli texnologiyalar va zamonaviy metodlarning ijodiy salohiyatni faollashtiruvchi kuchli vosita ekanini tasdiqladi. Motivatsion qo'llab-quvvatlash muhitining

yaratilishi talabalarning tashabbuskorligini oshirib, ijodiy fikrlashni barqaror rivojlantirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quv-metodik tizimni takomillashtirish tamoyillarining kompleks qo'llanilishi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqadi. Bunda ijodiy kompetensiyalar nafaqat nazariy bilimlar asosida, balki real pedagogik faoliyatda shakllanadi va mustahkamlanadi. Ushbu yondashuv ta'lim sifatini oshirish, innovatsion fikrlovchi pedagoglarni tayyorlash hamda zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos kadrlar yetishtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ijodiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan o'quv-metodik tizimni takomillashtirish tamoyillari pedagogik nazariya va amaliyot integratsiyasining samarali modeli sifatida namoyon bo'ladi. Ularning ta'lim jarayoniga izchil joriy etilishi ijodkorlikni rivojlantirishda barqaror natijalarga erishish imkonini beradi. Kelgusida mazkur tadqiqot natijalarini boshqa fan yo'nalishlariga moslashtirish, raqamli ta'lim muhitida kengroq tajriba-sinovdan o'tkazish hamda metodik modelni takomillashtirish bo'yicha izlanishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Бабанский Ю.К. Оптимизация процесса обучения. — М.: Педагогика, 1982. — Б. 45–52.
2. Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. — М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. — Б. 18–27.
3. Турсунов С. Таълим жараёнида ижодий фаолликини ривожлантириш методикаси. — Т.: Фан, 2018. — Б. 63–71.
4. Бабанский Ю.К. Оптимизация процесса обучения. — М.: Педагогика, 1982. — Б. 45–52.
5. Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. — М.: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. — Б. 18–27.
6. Турсунов С. Таълим жараёнида ижодий фаолликини ривожлантириш методикаси. — Т.: Фан, 2018. — Б. 63–71.
7. Хуторской А.В. Дидактическая эвристика. — М.: Народное образование, 2003. — Б. 102–118.
8. Castells M. The Rise of the Network Society. — Oxford: Blackwell, 2010. — P. 145–162.
9. Torrance E.P. Guiding Creative Talent. — Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1962. — P. 55–73.
10. Rasulov R. Zamonaviy kommunikatsion texnologiyalarning jamiyatdagi mafkuraviy jarayonlarga bo'lgan ta'siri //«ACTA NUUZ». — 2025. — T. 1. — №. 1.12. — С. 176-179.
11. Rasulov R. O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar dunyoqarashi siyosiy ijtimoiylashuviga ta'siri //«ACTA NUUZ». — 2025. — T. 1. — №. 1.4. 1. — С. 169-171.171.
12. Khaydarova M., Rasulov R. Positive and negative consequences of the globalization process //International Conference on Arts, Society & Humanities. — 2025. — T. 1. — №. 3. — С. 35-39.
13. Rasulov, Rustambek. "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarining yoshlar dunyoqarashi siyosiy ijtimoiylashuviga ta'siri." «ACTA NUUZ» 1.1.4. 1 (2025): 169-171.
14. Tursunov O., Rasulov R. O. Zamonaviy dasturlash muhitida arifmetik amallarni avtomatlashtirish: c# winforms asosida kalkulyator modeli //Академические исследования в современной науке. — 2025. — T. 4. — №. 19. — С. 23-26.
15. Khaydarova M., Rasulov R. Positive and negative consequences of the globalization process //International Conference on Arts, Society & Humanities. — 2025. — T. 1. — №. 3. — С. 35-39.
16. Rasulov R. The importance of education and upbringing in forming political socialization in the worldview of youth //Академические исследования в современной науке. — 2024. — T. 3. — №. 48. — С. 124-132.
17. Odilovich, Rasulov Rustambek. "Cultural basics of education and the role of youth in it. Philosophy And Life International Journal. ISSN 2181-9505. Doi jurnal 10.26739/2181-9505."
18. Odilovich R. R. The Essence of Political Socialization Processes and their Role in Social Development //Spanish Journal of Innovation and Integrity. — 2024. — T. 37. — С. 32-41.
19. Odilovich, Rasulov Rustambek. "Yoshlar bilan ishlash tizimida ma'naviy-mafkuraviy omillarning yoshlar ongiga ta'siri." International Journal of Scientific Research 2 (2023): 147-152.